Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA XRONOTOP SHAKLLARI

Halima Muxitdinovna Yuldasheva*
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD
✉ halimaxonim@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot atoqli o'zbek shoiri Erkin Vohidovning "Quyosh maskani" dostoni tahlili asosida olib borildi. Badiiy adabiyotda muhim ahamiyat kasb etgan makon va zamon muammosi buyuk rus adibi Mixail Baxtinning xronotop nazariyasiga asoslangan holda ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan yoritib beriladi. Maqolada "Quyosh maskani" dostonidagi "Sayhun", "cho'l orti","Zuhro", "Alifbo" xronotoplari obyekt sifatida tanlab olindi. Ushbu xronotoplar orqali asar qahramonlarining ruhiy kechinmalari, psixologik holatlari talqin etiladi.

Kalit so'zlar

xronotop, syujet, badiiy haqiqat, psixologizm, badiiy maydon, ruhiy kechinma.

DOI: 10.5281/zenodo.21743227

KIRISH

Adabiyotshunos olim M.Baxtin roman janriga oid tahlillarida xronotop tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg'unlikni xronotop, deb ataymiz [1.234]".

Tahlil uchun tanlangan Erkin Vohidov she'riyatida badiiy zamon va makon uyg'unligi – xronotop shakllari xronotopik tizimlarni vujudga keltirgan deyish mumkin. Bularsiz shoir ijodini, aymiqsa, dostonlarini to'la tushunish imkonsizdir. Bu tushunchani 30-yillarda adabiyotshunoslik ilmiga kiritgan M.Baxtin ta'kidlashicha, xronotoplar mukammal tahlil uchun badiiy matnning zaruriy qismidir. "Xronotop – bu vaqtning makonda gavdalanishidir. U adabiy obrazlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi"[2.49], - deb yozadi M.Baxtin.

Muhokama. Erkin Vohidovning "Quyosh maskani" dostonida obrazlar ana shunday xronotop shakllari vositasida o'zining beqiyos badiiy takomiliga yetadi. Professor U.Jo'raqulov M.Baxtin qarashlarining davomchisi sifatida ushbu kategoriyaga chuqur ilmiy mushohada bilan yondashadi hamda "janr fazilatini, syujeti va obrazlari mohiyatini bu nazariy tushunchasiz to'la anglay olmaymiz",-deydi. [3.200]. Doston tahlilida shoir buyuk muhabbat bilan qalamga olgan Vatan, millat, el-yurt tushunchalari makon va zamon uyg'unligida poetik obraz darajasiga ko'tarilganini anglash mumkin.

Qadimiy Sayhunning kanorasidan,
Ostankino minorasidan
Moskvaga qarab turgan bir o'zbek o'g'li
…
Hov ana
U yerda tugaydi o'rmon,
Davomi tutashdir poyonsiz cho'lga.
Cho'l orti men uchun eng aziz makon
O'zbekiston deya atalgan o'lka. [4.195]

Dostonda Sho'rolar davlatining poytaxti, Rusiya tarixining mo'ysafid shohidi Moskva shahriga zamonasining muhtasham minorasi Ostankinodan qarab o'yga tolgan bir o'zbek o'g'lining qalb kechinmalari ifoda

etilgan. 1970-yilda yozilgan doston misralaridagi Sayhun, o‘zbek, cho‘l orti, O‘zbekiston xronotoplari asarning mustabid tuzum toloto‘mlaridan hayiqmay jasorat bilan bitilganini, shoir e’tiqodi chuqur o‘zanlardan suv ichgan millat shoiri ekanini ko‘rsatadi. “Hov ana U yerda tugaydi o‘rmon” misralaridagi makon – o‘rmonning tugashida dunyo sayyohlarini lol qilgan shaharning hayratlari shoir uchun uzoq davom etmaganligiga ishora bor. Shoir 1967-yilda (7 yil davomida) qurib bitkazilgan 120 qavatli ulug‘vor minoradan turib cho‘l ortidagi VATANga bo‘lgan mehrini g‘urur va faxr bilan ifoda etadi. Misralardagi “…ustida Zuhro porlab turgan, Oy ham o‘sha tarafdan ko‘tariladigan yurt ohangrabo bo‘lib uning vujudini o‘ziga tortadi”. Shoir qay yurtlarda bo‘lmasin, tug‘ilgan go‘shasi, tom ma’noda Vatan deb bilgani – so‘lim O‘zbekiston uni butun borlig‘i bilan o‘ziga rom etadi. Hatto ilk bor savodini chiqargan “Alifbo” kitobi ham uning uchun Vatan timsoli, negaki u yosh Erkinga “ilk marta olamni ko‘rsatgan”.

Ne ajab,
U tomon boqdim daf’atan
Vujudimni tortdi bir ohangrabo.
Oy ham ko‘tarilar o‘sha tarafdan,
O‘sha yurt ustida porlaydi Zuhro.
…
Unda men ilk marta olamni ko‘rib,
Ilk bor “Alifbo”dan olganman ta’lim.
Olam markazining kiftida turib,
Ona yurtim,
Senga qilaman ta’zim. [6.195]

Erkin Vohidov tug‘ilgan Farg‘ona vodiysi, ota makoni Oltiariq qishlog‘i ko‘chalarida shoirning “bolaligi chopar to‘zg‘itib tuproq”. Bu bolalik ota mehriga to‘ymagan, ona mehridan erta judo bo‘lgan bolakayning achchiq qismati. “Umr kitobini varaqlab ko‘rsam, …Qo‘sha judolikni ko‘ribdi yurak…” [6.195] –deydi iztirob bilan shoir. Otasining yoshiga yetsa-da otaga munosib farzand bo‘loldimmi, deya o‘kinayotgan, “el uchun fido bo‘lib” yashamoqni hayot maslagiga aylantirgan lirik qahramon timsolida biografik xronotopga xos xususiyatlarni ko‘rish mumkin. Biroq bu o‘kinchni “ota degan nomga teng TOG‘A degan so‘z” yuvib ketganini anglash qiyin emas.

…Esim tanib menga “tog‘a” degan so’z
“Ota” degan so‘zga bo‘ldi barobar.
Sog‘inch bilmasaydi
Bolalik agar,
O‘ychan qilmasaydi pinhona dardim.
Balki ko‘p qatori men ham bir hunar
Bir foydali kasbning izmin tutardim, - [6.196]

misralarida shoir biografik xronotop vositasida epik manzaralar chizadi, muallif shaxsiyatidagi ruhiy iztiroblarni poetik ifodalaydi. Shu o‘rinda shoirlik unga taqdir taqdim etgan ma’sum bolalikning - sog‘inch to’la dard yetaklab kelgan o‘ychan bolalikning “asorati” ekani ta’kidlanadi. Shunday bo‘lsa-da, “ona bo‘lib quchgan o‘lka, ota bo‘lib boshini silagan xalq” shoirning yolg‘iz o‘sdim deyishga zarracha haqqi yo‘qligini bildirib turdi.

Adabiyotshunos B.To’rayevaning tadqiqotlarida shunday fikrlar bor: “Xronotop olam va odam munosabatlarini tasvirlashda, qahramon qalbidagi kechinma, iztirob, uning o‘zigagina tegishli ruhiyat manzaralarining eng chuqur o‘zanlarini to‘liq his qilishda, yozuvchining badiiy-g‘oyaviy maqsadini ifodalashda hamda asarning mazmun va shaklini ochishda xizmat qiladi. U ijodkor uslubining o‘ziga xos jihatlarini belgilab, milliy fikrlash tarzini aks ettiradi. Xronotop janr va syujetni tashkil etib, asarning ichki izchilligini mustahkamlaydi. Zamon va makon kategoriyasi umumlashtiruvchi vazifa bajaradi” [4.146]. Olimaning ushbu mushohadalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, xronotop badiiy matnda asarning mazmuniy va shakliy tuzilishini belgilab beradigan muhim vositadir.

Adabiyotshunos olim Baxtiyor Nazarov “Obraz va tafsir” risolasida ta’kidlashicha, poetik obraz — bu shoir tafakkuri bilan o‘quvchi idroki o‘rtasidagi estetik ko‘prikdir. Unga ko‘ra, obraz oddiy timsol emas, balki ichki kechinma, ruhiy holat, ma’naviy- axloqiy pozitsiya va badiiy tafakkurning shakllangan mahsulidir. Baxtiyor Nazarov nazariyasida poetik obraz uch asosiy funksiyani bajaradi: estetik kommunikatsiya vositasi, semantik kod va madaniy-ruhiy timsol[5.69]. Ya’ni, obraz — bu shunchaki badiiy timsol emas, balki ichki ruhiy kechinma, muallif dunyoqarashi va estetik pozitsiyasining uzviy ifodasidir[5.160]. Bundan kelib chiqadiki, poetik obraz muallif va kitobxon o‘rtasida badiiy-estetik aloqani ta’minlovchi vosita sifatida qaraladi. Badiiy timsol orqali shoir o‘zining ichki dunyosini, qalb kechinmalarini, ruhiy iztirob va ilhom lahzalarini badiiy-estetik tarzda ifoda etadi. Bu holat o‘quvchi tasavvurida ruhiy yaqinlik uyg‘otib, asar qahramonlari bilan bir butun holga yetadi.Olimning fikricha, “poetik obraz ko‘p hollarda ochiq-oydin ma’noni emas, balki yashirin, ko‘p qatlamli, ramziy ma’nolar tizimini o‘zida saqlaydi. Bu obrazlar har bir o‘quvchi tomonidan turlicha talqin qilinishi, ya’ni individual idrok orqali ochilishi mumkin bo‘lgan ramziy belgilar tizimidir”. [5.160].

Badiiy obraz badiiy tafakkur mahsuli bo’lib, go‘zallikni his etishga chorlovchi kuchga ega. Shunday obrazlar orqali shoir o‘z shaxsiy kechinmalarini xalq qalbi bilan uyg‘unlashtiradi. Baxtiyor Nazarov bunday obrazlarni “idrok etiladigan emotsional energiya” deb ataydi. Unga ko‘ra, obraz — bu faqat so‘z yoki tasvir emas, balki o‘quvchining hissiy dunyosini harakatga keltiruvchi kuchdir.

She’riyat bu asli junun kamoli,
“Hayot ummonida yozmish shamoli
Bo‘ronlarga burdi umrim kemasin”.
Maqsad sohiliga intildim betin.

Misralardagi “hayot ummoni”, “umr kemasi”,”maqsad sohili” poetik obrazlari shoir yaratgan xronotoplar ichida fantastik xususiyati bilan ajratlib turadi. Albatta, bunday ummon, sohil xaritalarda yo‘qligi ma’lum. Biroq shoir xayolotida voqelik ramziylik bilan shu darajada tez o‘rin almashadiki, bu holat asar qahramonlariga xos ruhiy kechinmalar, qalbga doir tushunchalarni chuqur his etish imkonini beradi.

Dostondagi xronotoplar qatorini milliy xronotoplarsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Adabiyotimizda mashhur “quyoshli qalam”, “quyosh o‘lkasi”, “manglayidan quyosh o‘pgan”,“quyosh maskani” iboralarining barchasida O‘zbekistonga xos caxovatli quyosh timsoli mujassam. Erkin Vohidov “Quyoshiston” atamasini Vatan ramziga aylantirib, vohidovona okkozionallik hosil qilgan. “do‘ppidek”, “hiloliy nusxa” metaforalari shoir uchun Vatan timsoliga aylangan. O‘quvchi dostonning har bir satrida ona yurt taftini sezib turadi,keksa Tiyonshon, ikki qo‘lini cho‘zib turgan ikki daryo, hatto Sharq-u G‘arbga “do‘stlik kosasini” uzatib turgan Orol ham - bari ta’rifi doston diyor ramzi. O‘quvchi “….O‘lkam – “mening ko‘zim ul”, “hayotim, rizq-u ro‘zim ul” metaforalarida shoirning Vatanga bo‘lgan ulkan muhabbatini his etadi.

…”Quyoshiston” ta’rifli diyor
Nurli peshonamga bo‘libdi nasib.
…Oltin uzuk yanglig‘ o’lkamni ko‘rdim
Zaminning do‘ppidek bir pallasida.
Hiloliy nusxa gul –
Bu mening yurtim!
…Uzatib turibdi Sharq-u G‘arb tomon
Do‘stlik kosasini – Orol qo‘lini.

Biroq shoir tafakkurida vatanning qamrovi ancha keng: insonning kindik qoni to‘kilgan manzil singari qalb qoni tomgan zamin ham VATAN kabidir. Yunon tuprog‘ida bir xalq erki uchun jon fido qilgan Bayron, Yevropaga ko‘ksini qalqon qilgan, Yeneseyda o‘sgan sibirlik yigit, qabri Belorus yerida qolgan shoir yurak Sulton Jo‘ra taqdirida nafaqat kindik qoni to‘kilgan diyor, balki qalb qoni to‘kilgan zamin ham vatandir.

Kindik qoning tekkan yermi Vataning,
Yo qalb qoni tomgan zaminmi diyor? 201

Dostondagi milliy xronotoplar qatorida quyoshday munis, jannatga mengzalgan O‘zbekiston nomi qayta-qayta alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Byorns tog‘larni, Jambul o‘lanlari sahroni, Chingiz Olatovni, Mirzo Badaxshonni titratuvchi asarlar bitganda, o‘zbek shoiri Erkin Vohid vatan mehri ifodasida ulardan-da

o‘zib ketdi:

Men yurtimni yozsam bo‘lmog‘i kerak
Osmon oq qog‘oz-u
Dengiz siyohdon, - [6.199]

misralaridagi mubolag‘aning kuchliligini shoir ijodida mumtoz she’riy san’atlarning o‘zlashtirilishiga ishtiyoq balandligi bilan izohlash mumkin. O‘quvchi shoir tashbehlarida navoiyona ruh yashiringanini his qilib turadi.

Cheksiz “osmon”, sarhadsiz “dengiz” xronotoplari dostonning bosh g‘oyasi bo‘lgan vatanga muhabbat tushunchasini yanada yuksaltiradi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, shoir yurt go‘zalliklaridan maftun bo‘libgina qolmasdan, uning og‘ir kechmishini ham yodga oladi. Zahmatkash xalqining tarixi oson kechmaganini badiiy tasvirlashda o‘xshashsiz metaforalar yaratadi:

…Paxta…
…u chamanning ko‘ksida gulmas,
Yerning kaftidagi oq po‘rsildoqlar.
U manglay teridan yetilgan gavhar,
U nuri diydadan bino bo‘lgan dur. [6.200]

Shoir o‘zbek millatining ijtimoiy munosabatlariga singib ketgan “ona qizim”, “ona yurtim”, “ona xalqim” kabi birliklardan milliy xronotop yaratishda unumli foydalanadi. Bu - onaday ma’sum zotga qiyoslangan xalqning zimmasiga yuklangan million-million tonna paxta majburiyatini ko‘targan millatning poetik suvratlanishidir. Paxta – minbarlardan milliy “faxr” deya og‘iz ko‘pirtirib maqtalgan xazina aslida kamtar, xokisor avomning kaftidagi “oq po‘rsildoqlar” badaliga bunyod etilardi.

…Ona xalqim!
Tarix yelkangga qo‘ydi
Million tonnalarning zaminday yukin. [6.200]
…U Quyoshday munis, hayotbaxsh siyna,
Zamin-u zamiri tuganmas kengdir.
Yerning nasya emas, balki naqdina
Jannati atalgan O‘zbekistondir. [6.199]

XULOSA.

Xronotop shakllari dostonlar badiiy qurilishida timsollar xarakterini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asar xronotopning bir shaklida yaratilishidan ko‘ra bir necha xil xronotop shakllarining mushtarak holda kelishi badiiy matn tabiatiga mos keladi. Erkin Vohidov dostonlarida xronotop shakllari sintezlashgan holda nisbatan ko‘proq kuzatiladi. Bu holat muallif badiiy-estetik g‘oyasini ochishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975.
2. Бахтин М. Эстетика словесного творчества. –М.: Искусство, 1975.
3. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘.Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijoduy uyi, 2015.
4. To’rayeva B. Xronotop shakllari olam tasvirini qayta yaratish vositasi sifatida.
– Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 1 (42),P.146.https://journal.fledu.uz
5. Nazarov B. Obraz va tafsir: Adabiy-estetik tahlillar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020.
6. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – “Sharq” NMAK, 2018.